

Temirov Farrux Umedovich
Buxoro davlat universiteti dotsenti
tarix fanlari falsafa doktori (PhD)

JAHON OLIMLARI HAMDA ADIBLARNING SADRIDDIN AYNIY ILMIY MEROSIGA BERGAN BAHO VA QARASHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, ma'rifatparvar adib, yirik so'z san'atkori va jamoat arbobi Sadriddin Ayniyning ilmiy-ijodiy merosi, jahon ilm-fanida tutgan o'rni va qo'shgan hissasi haqida, olimning ijodiy yo'nalishida publisistika, hajviya, fel'yeton, pamphlet, she'riyat, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik, sharqshunoslik, romanchilik, tarjimonlik kabi janrlar muhim o'rinnegallaganligi aytib o'tilgan. Shuningdek, S.Ayniyning xalqaro mavzularda yozgan ijtimoiy-siyosiy publisistik maqolalari ham tadqiq etilgan bo'lib, unda Hindiston, Xitoy, Afg'oniston, Eron, Turkiya hamda arab xalqlari hayoti, Amerika va Angliya mustamlakachilarining Sharqda olib borgan siyosati sharhlab o'tilgan. Uning ilmiy, adabiy va tarixiy merosi insoniyat ma'naviy merosining xazinasidan munosib o'rinnegallaganligi ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Ma'rifatparvar, jadid, masjid, madrasa, Sharq, shoir, ma'rifat, matbuot, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik, sharqshunoslik, romanchilik, tarjimonlik Hindiston, Xitoy, Afg'oniston, Eron, Turkiya.

ОЦЕНКА И ВЗГЛЯДЫ МИРОВЫХ УЧЁНЫХ И ПИСАТЕЛЕЙ НА НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ САДРИДДИНА АЙНИ

Аннотация. В данной статье говорится о научно-творческом наследии просветителя, крупного мастера слова и общественного деятеля Садриддина Айни, о его месте и вкладе в мировую науку и культуру. В творческом направлении ученого важное место занимают такие жанры, как публицистика, сатира, фельетон, памфлет, поэзия, литературоведение, историография, востоковедение, романстика и переводческое дело. Также исследованы его социально-политические публицистические статьи на международные темы, в которых он освещал жизнь народов Индии, Китая, Афганистана, Ирана, Турции, а также арабских стран, анализируя политику американских и английских колонизаторов на Востоке. Его научное, литературное и историческое наследие занимает достойное место в сокровищнице духовного наследия человечества и подвергнуто научному анализу.

Ключевые слова: просветитель, джадид, мечеть, медресе, Восток, поэт, просвещение, печать, литературоведение, историография, востоковедение, романстика, переводческая деятельность, Индия, Китай, Афганистан, Иран, Турция.

THE EVALUATION AND PERSPECTIVES OF WORLD SCHOLARS AND WRITERS ON THE SCIENTIFIC HERITAGE OF SADRIDDIN AYNI

Annotation. This article gives information about the scientific and creative heritage of the enlightened writer, great artist and public figure Sadriddin Ayni, his role and contribution to world science, journalism, comedy, feuilleton, pamphlet, poetry, historiography, literary criticism, historiography, his works in genres such as novels, translation have been mentioned. Aini's socio-political articles on international issues were also studied, commenting on the lives of India, China, Afghanistan, Iran, Turkey and the Arab peoples, and the policies of the American and British colonialists in the East. It has been scientifically analyzed that Sadriddin Aini's scientific,

- 8 literary and historical heritage occupies a worthy place in the treasury of the spiritual heritage of mankind.

Key words: Enlightener, Jadid, mosque, madrasa, the East, poet, enlightenment, press, literary studies, historiography, Oriental studies, novel writing, translation studies, India, China, Afghanistan, Iran, Turkey.

Jahon miqyosida globallashuv asri bo‘lmish XXI asrga kelib zamonaviy adabiyotga talaygina yangiliklar kiritilmoqda. Bu yangiliklar bir tomondan tabiiy rivojlanib, milliy adabiyot taraqqiyotining hissasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan Yevropa va jahon ta’siridagi o‘zgarishlardir. Shuning barobarida jamiyatning axborotlashuvida adabiyot va tarix muhim rol o‘ynamoqda. Dunyoning ilmiy tadqiqot markazlarida turkistonlik mutafakkir allomalarining ilm-fan taraqqiyotiga qo‘sghan hissasi, XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida musulmon mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayoti, jadidchilik harakatining vujudga kelishi hamda jadid namoyandalarining bu harakatda tutgan o‘rni va matbuotchilik faoliyati o‘rganilmoqda. O‘z ijodi bilan maktab yaratgan Sadriddin Ayniyning ilmiy merosi, jadidchilik faoliyati ham dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan munosib e’tirof etilgan.

Sadriddin Ayniyning ilmiy ijodiy faoliyati, tarixiylik, ijtimoiy-madaniy qarashlari, uning ijodida Turkiston tarixi, qolaversa Farg‘ona tarixi masalalari ham alohida o‘rinni egallaydi. Bu mavzu doirasi keng va dolzarb bo‘lib kelganligi uchun qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin: 1. Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda nashr qilingan ishlar. 2. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar.

Qadim va navqiron Buxoroda ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat ravnakiga beqiyos hissa qushib, uning dong‘ini dunyoga taratganlardan biri Sadriddin Ayniydir (1878-1954). U Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tanilgan, shu katta hududda yashovchi xalqlarning adabiyoti jahon minbariga chiqishga loyiqligini o‘zbek va tojik tillarida yaratgan qator she’riy, nasriy, tarixiy, ilmiy va publisistik asarlari bilan amaliy isbot qila olgan betakror va serqirra ijodkorlardan hisoblanadi.

Taqdir SAyniyga ijtimoiy-siyosiy voqealar shiddat bilan kechgan ikki (XIX va XX) asrni ko‘rmoqni, feodal bosh-boshdoqlik va sho‘roviy istibdoddan iborat ikki tuzumda yashab, birining yetmish besh darrasini yegach, ikkinchisining erkka oid va’dalari sarob ekanligini anglamay, qolaversa 30-yillardagi stalincha qataq‘on boshiga soya sola boshlagach esa, qay darajadadir uni seza boshlasa-da, ammo qo‘rquv dahshatidan tuzumga xos sadoqat bilan xizmat qilmoqni, ikki xalqning farzandi bo‘lib zullisonayn so‘z san’atkori sifatida ham o‘zbek, ham tojik tillarida ko‘plab she’riy, nasriy, tarixiy, ilmiy va publisistik asarlar yozdi.

Aytish mumkinki, u bu tarixiy vazifani sharaf bilan uddalab, nainki, o‘zbek va tojik xalqlarining, balki, butun Markaziy Osiyo xalqlari yangi adabiyotlarining bayroq dorlaridan biri bo‘ldi, bu adabiyot shuhratini jahon minbarlariga ko‘tardi, olam ahliga tanitdi. S.Ayniyga jahon miqyosida bu qadar qiziqishning boisi nimada? –degan haqli savol tug‘ilishi tabiiy. Bu savolga dab-durustdan javob berish ham oson emas, albatta.

Bunday jahonshumul qiziqishning asosiy sabablarini adibning asarlarida xalq turmushi o‘ziga xos milliyligi va butun murakkabligi bilan haqqoniy aks ettira olganligi, bunda XIX asrning oxirlaridan - XX asrning 30-yillarigacha bo‘lgan davrda Turkiston, Buxoro va Sharq mamlakatlari zaminidagi voqelik fonida kechgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni jahoni yodisotlarga uyg‘unlashtirgan holda estetik jihatdan to‘g‘ri baholay bilganligi, eng muhimi betakror san’atkorlik dahosi bilan tarixiy haqiqatni badiiy tarzda, mohirona tasvirlay olganligi bilan izohlash mumkin. Shu ma’noda S.Ayniyni tarix ilmida iste’dodli adibu yozuvchilikda tarixning ulkan bilimdoni, deya ta’riflash mubolag‘a emas.

Mashhur adib, adabiyotshunos, tarixchi, publisist va Sharq xalqlari tarixi bilimdoni S.Ayniy ilmiy, ijodiy merosi jahon adabiyotshunosligi va ilmiy doiralarda allaqachon o‘z bahosini olgan. Buxoroda mavjud bo‘lgan zullisonayn, ya’ni ikki tillilik adabiy an’anasini S.Ayniy ijodiga ham xos. Xoja Ismatullo Buxoriy, Mujrim Obid, Mirzo Somiy, Sharifjon Maxdum, Abdurauf

Fitrat kabi S.Ayniy ham ushbu an'anani davom ettirib, ikki til – o'zbek va tojik tillarida ijod qildi. Uning dastlabki ilmiy, publisistik maqolalari o'zbek tilida yozilgan va e'lon qilingan.

Zullisonayn san'atkor sifatida iste'dodini namoyon eta olgan S.Ayniyini o'tgan asrda dunyo tan oldi. Shu boisdan 1962 yilda Qoxirada bo'lib o'tgan Osiyo va Afrika yozuvchilarining Xalqaro kongressida S.Ayniy nomi hind Robindranad Tagor, xitoy Lu Sin va arab Toxo Xusaynlar katorida tilga olindi. Bundanda e'tiborlisi, adib tavalludining 100 yilligi jahon miqqosida keng nishonlangan edi. 1978-yil Yunesko tomonidan "Sadreddin Ayniy yili" deb e'lon qilingan edi.

Chex olimi Irji Bechka "Sadreddin Ayniy va O'rta Osiyoning boshqa yozuvchilari ijodida an'anaviy maktablar" nomli maqolasining birinchi qismini 1971-yilda, ikkinchi qismini 1972-yilda o'zi bosh muharriri bo'lgan "Arhiv Oriyentalni" jurnalida nashr ettirdi. Irji Bechkaning keyingi maqolasi 1977-yilda "Sadreddin Ayniyning yaqinlashib kelayotgan yuz yilligi" nomi ostida e'lon qilindi. Fransuz adabiyotshunoslarining tojik yozuvchisi ijodi haqidagi maqola va kitoblarida Ayniy badiiy mahorati, san'atkorligi ta'kidlangan va "qalamning bir zarbasi bilan bizga ibratli mulohaza va xulosa beradigan insoniy va ijtimoiy xarakterlarni tasvirlay oladi", deya yuksak baho berilgan.

XX asrda Markaziy Osiyo adiblari orasida Yevropa ahli kashf etgan adiblarning dastlabkisi Buxoro farzandi S.Ayniy bo'ldi. Buning isbotini esa Yevropada nom qozongan mashhur yozuvchilarning olim va jamoat arbobi S.Ayniy asarlarini o'z tillariga tarjima qilingani misolida ko'rish mumkin. Jumladan, taniqli fransuz alibi Lui Aragon tomonidan "Sudxo'rning o'limi" hamda "Esdaliklar" asarlari tarjima qilinib, Yevropa xalqlari e'tiboriga xavola qilindi. U yevropaliklarni S.Ayniy bilan tanishtirar ekan: "Sadreddin Ayniy o'zining "Sudxo'rning o'limi" asari bilan jaxon adabiyotining buyuk namoyandalari Balzak, Shekspir, Gyoteler qatorida turadi", - deya yuksak baxo bergan.

Eron adiblari Said Nasafiy va Gulpochin Ulfat, rus adiblari Konstantin Fedin va L.Leonovlar S.Ayniyini jahon adabiyotining buyuk namoyandalari Jek London, Redyard Kipling, Maksim Gorkiy va Knut Gamsunlar qatoriga qo'yishdi. "Esdaliklar" 1957-yili mashhur fransuz yozuvchisi Lui Aragon tahririda "Sharq" nomi bilan Fransiyada bosilib chiqqan. Nemis adibi Alfred Kurilla esa, uni "Sharq madaniyatini puxta o'rgangan buyuk bilimdon" uning vorisi deb tilga olingen.

Uning birgina "Esdaliklar" asari to'la holiда 1954-1978 yillar orasida faqat rus tilida 14 marta qayta-qayta chop etiladi. Bu asar S.Ayniyiga shu qadar katta shuhrat keltirdiki, natijada qisqa muddatda Litva (1951), qozoq (1951, 1953), ukrain (1951), eston (1953), qirg'iz (1954), turkman (1956), gruzin (1956), arman (1957), ozarbayjon (1958), shuningdek, polyak (1950), bulg'or (1952), chex (1952), uyg'ur (1952, 1953, 1954, 1955), xitoy (1953, 1957), nemis (1955), fransuz (1956), mojar (1956), arab (1957) va yapon (2010) tillariga tarjima qilingan holda chop etildi.

Sadreddin Ayniyining "Esdaliklar" kitobi muqaddimasida ingliz tarjimonlari quyidagi fikrni bildirishgan: "Sadreddin Aini (1878-1954), trained amid the medieval 199 cloisters of a Bukhara madrasa (religious college), used his talents in the service of reform and revolution, fictionalizing his youthful memories for critical and didactic effect even before he recorded them in factual form". (*Tarjimasi*: "Buxoro madrasasida o'rta asr dindorlari bilan birga tahsil olgan Sadreddin Ayniy (1878-1954) o'z iste'dodini islohot va inqilob foydasiga ishlatgan. Shunday qilib, u yoshligidagi xotiralarni yangi tuzilmaga tanqidiy ta'sir ko'rsatish uchun aniq shaklda yozilishidan oldin ham ishlatgan").

S.Ayniy asarlarini o'z vaqtida Hindistonda keng targ'ibot qilgan, yozuvchi asarlari haqida taqriz va izohlar yozgan mashhur adib Roziul Sankrityan S.Ayniyining boshqa bir prozaik asari "Yetim" povestini ham hind tiliga tarjima qiladi. Asar 1956 yilda Ollohabodda ommaviy tirajda chop ettiriladi. Xuddi shu mozhir tarjimon Roziul Sankrityan 1952 yilda Patna shahrida hindiy tilida Sharq va G'arb olamiga manzur bo'lgan "Sudxo'rning o'limi" asarini ham nashr ettiradi. Oradan bir yil utgach, 1953 yilda esa hind xalq yozuvchi S.Ayniyining boshqa bir mashhur romani "Qullar"ni hind tilida o'girish baxtiga musharraf bo'ladi. Shuningdek, S.Ayniyining "Esdaliklar"i ham avtorining mazmundor so'zboshisi bilan 1961 yilda bengal tilida nashr ettirildi.

10

S.Ayniy vafotidan ikki yil keyin, 1956 yilda adibning "Esdaliklar" asarini arab yozuvchisi Xamid Abu Sa'd ruschadan arab tiliga tarjima qiladi. Inqilobdan avvalgi O'rta Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini, ayniqsa Buxoro amirligi davridagi real hayot manzaralarini hikoya qiluvchi bu asar Livan poytaxtida "Bor-Ul Bayrut" nashriyoti tomonidan 1957 yilda chop ettiriladi. Livan ilmiy jamoatchiligi, taraqqiyat parvar ziyolilari arab olami matbuotida Sharqning alloma san'atkori S.Ayniyning boshqa badiiy asarlarini o'qishga chanqoqliklarini bildiradilar. Buni biz Bayrut shahrida chiqadigan "Al-ydib" jurnali sahifalarida S.Ayniy asarlari va ayniqsa "Buxoro" kitobining tarjimasi bilan bog'liq qator taqrizlar va maqolalardan ham bilishimiz mumkin.

Alloma san'atkori, zullisonayn yozuvchi ustod S.Ay-niying umrboqiy rang-barang ijodiyoti va ijtimoiy faoliyati dunyoviy ahamiyatga molikdir. Adibning hayot haqiqatini aniq-ravshan aks ettirgan barcha katta-kichik asarlari ko'pchilik xalqlar tilida qayta-qayta nashr etilishi fikrimizning dalilidir.

Dunyoga mashhur qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov "Ikki san'atkor" nomli maqolasida "Men Muxtor Avezov bilan Sadreddin Ayniyni doimo hurmat qilishimni, ularni sevishimni kitobxonlar oldida e'tirof etmoqchiman. Ularning har ikkisi ham nodir hodisadir" , deb yozgan edi. Mana shundan buyon kechgan vaqt mobaynida dunyoda ko'p o'zgarishlar-ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy evrilishlar sodir bo'ldi. O'zining kuch-qudrati va imkoniyatlari haddan tashqari ishongan muazzam bir impreriya-sho'ro saltanati ham parchalanib ketdi, Adabiyot va san'at uchun bundam ortiq, bundan murosasizroq sinovni tasavvur qilish qiyin, albatta

S.Ayniy "Esdaliklar" asarining dastlabki ikki qismini o'zbek tilida yozishga ulgurib, 1953 yilda nashrdan chiqargan edi. "Esdaliklar"ning uchinchi qismini To'xtasin Jalolov va to'rtinchini qismini Abdulla Hakimovlar o'zbekchaga tarjima qilishdi. Bu asar Eron va Afg'onistonda, shuningdek, pushtun va hind tillarida ham nashr qilingan. "Esdaliklar"ni hozir jahonning o'ttizdan ortiq tilida o'qishadi. Yozuvchining "Odina", "Buxoro jallodlari", "Eski muktab", "Sudxo'rning o'limi" qissalari va "Qullar" romani ham jahon xalqlarining qirqdan ortiq tillariga o'girilgan.

Tarixnavis adib S.Ayniyning Buxoro zaminidagi voqelik fonida kechgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni jahondagi ijtimoiy-siyosiy hodisalarga uyg'unlashtirgan holda to'g'ri baholay bilganligi, eng muhim mihirola tasvirlay olganligi bilan izohlash mumkin. Shu ma'noda olimni tarix ilmida iste'dodli, adibu yozuvchilikda tarixning ulkan bilimdoni, deya ta'riflash mubolag'a emas. U xalqimiz o'tmishini xuddi o'zi yashagan zamonday mukammal bilgan, bilganlarini esa aniq, ravshan va ravon tasvirlagan. Uning o'tkir qalami tariximizdagi har bir nuqtadan kutilmagan badiiy obraz, ajdodlarimizning boy ma'naviy mulkini yaratganlar siyosini kashf eta olgandi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hech ikkilansdan aytish joizki, S.Ayniy ijodiyoti va ilmiy merosi XX asr dunyo madaniyati, adabiyotining eng nodir, eng e'tiborli va eng mazmundor sahifalaridan hisoblanadi. S.Ayniy badiiy ijodining poydevori ilm, ma'rifat tarix, hayot va haqiqatdir. S.Ayniy asarlarini bilish ko'hna Sharq tarixi, madaniyati, mumtoz adabiyoti va milliy qadriyatlarini anglashga yo'l ochadi.

S.Ayniy jahon adabiyoti va ayniqsa Sharq hamda Fap6 adabiyoti va san'atiga zo'r qiziqish bilan qaragan. U fransuz, ingliz, nemis klassik yozuvchi va shoirlari asarlari bilan tojik va o'zbek tiliga qilingan tarjimalar asosida tanishadi. Darhaqiqat, Sadriddin Ayniy nomi milliy sarhadlardan tashqarida ham ma'lum va mashhurdir.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Айний замондошлари хотирасида. Хотиралар, мақолалар, ҳикоялар, шеърлар (Тўплаб нашрга тайёрловчи М.Ҳасанов). – Тошкент: Faafur Fulom nomidagi Adabiёт va san'at nashriёti, 1978

2. Книга жизни Садриддина Айни. – Душанбе: Ирфон, 1978. – С. 7.

3. Toxirova S.X. Sadriddin Ayniy asarlarining Yevropa adabiyotiga ta'siri va tarjimasi. filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2024. – B. 15.

4. Брагинский И.С. Садриддин Айни очерк жизни и творчества. – стр. 78
5. Альфред Курелла. Шарқ ва Ғарб воситачиси / Айний замондошлари хотирасида. Хотиралар, мақолалар, ҳикоялар, шеърлар (Тўплаб нашрга тайёрловчи М.Ҳасанов). – Тошкент:Faafur Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. –Б. 37-40
6. Асимов М., Брагинский И.С. Садриддин Айни. (100 лет со дня рождения). – Москва: Знание, 1978. – стр. 59.
7. Азизқулов Ж, Муллојонова З. Фехрастй асарҳои С. Айний ва адабиёти оид ба ў. (То охири соли 1961). – Душанбе, 1963. - сах. 261
8. Perry J., Rachel L. The sands of Oxus (Reminiscences). [Text] // J. Perry., L. Rachel. – California: Mazda publisher, Costa Mesa, 1998. – 275 p.
9. Брагинский И.С. От Авесты до Айни, - Душавбe: Ирфон, 1981, - Стр. 241.